
NURONIYLAR DONA SURISHDI



Tuman istiroxat bog'ida "Mahalla" xayriya jamoat fondi tuman bo'linmasi tashabbusi bilan Nuroniylar bo'limi hamkorligida keksa nuroniy otaxonlar o'rtasida "Sportni sev, sport bilan yasha" shiori ostida shaxmat musobaqasi bo'lib o'tdi.

Sport insonlarni birlashtiradi, deganlaridek ushbu musobaqaga Qo'shtepa tumanidan, Andijon viloyati Bo'z tumanidan xam shaxmat ishqibozlari tashrif buyurib, ishtirok etdilar. Bugungi bahslarda 20 dan ortiq ishtirokchilar bellashdilar.

Yakuniy natijlarga ko'ra, faxrli 1-o'rinni Suvliariq MFY faxriysi Saydullo To'xtamatov, 2-o'rinni Yoshlik MFYdan Abduqahhor O'rinboyev, 3-o'rinni Bahor MFYdan Qodrijon Jo'rayev egalladi. Musobaqada ishtirok etib, faxrli o'rinlarni egallagan hamda barcha ishtirokchilarga "Mahalla" xayriya jamoat fondi tuman bo'linmasining sovg'alari topshirildi.

YoZYoVON TUMANI HOKIMLIGI AXBOROT XIZMATI

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook,](#)

2023-06-27 14:13:57